



Abdulla Qahhorning “Sinchalak” asarida badiiy-g’oyaviy tahlili

Bahriddinova E’zoza

Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy pedagogika universiteti

Burxanova Feruza

Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy pedagogika universiteti ilmiy rahbari

Annotatsiya: Ushbu maqolada mashhur o’zbek yozuvchisi Abdulla Qahhorning “Sinchalak” nomli qissasi ilmiy va badiiy jihatdan tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida asarda ilgari surilgan jasoratlilik, ayollarning mardligi va o’sha davrdagi ba’zi amaldorlarning ilmsizlik g’oyalari ochib beriladi. Tadqiqotning natijalari hikoyaning ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatini asoslashga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: Abdulla Qahhor, mardlik, jasurlik, Ozod Sharafiddinov, sinchalak, ilmsizlik.

Abstract: This article analyzes the story "Sinchalak" by the famous Uzbek writer Abdulla Qahhor from a scientific and artistic perspective. The analysis reveals the ideas of courage, women's bravery, and the ignorance of some officials of that time put forward in the work. The results of the study serve to substantiate the social and educational significance of the story.

Key words: Abdulla Kahhar, courage, bravery, Ozod Sharafiddinov, scrupulousness, ignorance

Аннотация: В данной статье проводится научный и художественный анализ рассказа «Синчалак» известного узбекского писателя Абдуллы Каххора. Анализ выявляет идеи мужества, женской храбрости и невежества некоторых чиновников того времени, выдвинутые в произведении. Результаты исследования подтверждают социальное и образовательное значение рассказа.

Ключевые слова: Абдулла Каххор, смелость, отвага, Озод Шарафиддинов, щепетильность, невежество.

Abdulla Qahhorga o’zbek yozuvchilarining ichida “so’zga xasis” ijodkor deb ta’rif berilgan. Negaki, uning har bir asari qisqa bo’lishiga qaramasdan sermazmun hisoblanadi. Uning “Sinchalak” qissasi ham ana shunday asarlardan biri bo’lib, unda birgina ayolning jasurligi, eskicha dunyoqarashli insonlarga qarshi chiqib, kamchilik va xatolarini ko’rsatgan qizning taqdiri haqida so’z ketadi.

Qissada “Bo’ston” kolxozining tajribali raisi, ko’p mehnat qilgan, ammo manmanlikka berilgan, eskicha dunyoqarashli Qalandarovga katta hayotga endigina

kirib kelayotgan yosh xodima- Saida ro'baro keladi. Ularning tengsiz to'qnashuvi orqali yozuvchi butun jamiyatdagi dolzarb voqealarni, kamchilik va xatolarni ko'rsatadi, ularning sababini yoritadi. Bu asar haqida adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov shunday fikr yuritadi, aytadiki, Abdulla Qahhor "Saida obrazida hozirgi ilg'or o'zbek ayollarining xarakterli, tipik sifatlarini umumlashtiradi". Bu ta'rifga yaqqol misol qilib, Saida ishga kelgan kunidanoq ishga berilib ketadi, ya'ni anchadan beri ochilmagan Zulfiqorovga tushgan arizani ochish bilan boshlaydi. Qalandarov bunga albatta salbiy qaraydi, chunki u unga qarshi chiqqan insonlarni xushlamaydi. Shu sababdan Qalandarov uni birinchi marta otga minayotganligiga qaramasdan uni otini yugurtirib Saidani azoblanishiga sababchi bo'ladi va uni shunchaki kuzatib o'tiradi. Taqdir taqozosi bilan Qalandarovning o'g'li Kozimbek Saida bilan tanishadi va ular yaqin bo'lishni boshlashadi. Hatto ularning o'rtasida sevgi-muhabbat ham paydo bo'ladi. Buni kuzatib turgan Eshon g'azablendi, chunki u o'z qizini Qalandarovning o'g'liga bermoqchi va Qalandarov bilan yanada yaqin bo'lib, uning boyliklariga ko'z tikayotgan edi. Shuning uchun, u Saidani yo'qotish rejasini tuza boshlaydi va Qalandarovning yoniga borib, Saida haqida noma'qul gaplarni gapirib, uni yomon ko'rsatishga va Qalandarov Saidadan yanada nafratlanishi uchun talaygina bo'htonlar o'ylab topadi. Natijada uning rejasini amalga oshadi, ya'ni eshon o'z qo'li bilan Saidaning ustidan ariza yozib Qalandarovga beradi va uni shaharga jo'natib yuboradi. Eshon bu qilmishidan xursand bo'ladi. Ammo shaharga borgan Qalandarov Saidaning aqlli va mehnatkashligini tushunadi va Eshonni razilligini anglaydi. Asar so'ngida Qalandarov ishdan ketishi, Saida va Kozimbekning taqdir yo'llari tutashishi bilan tugallanadi. Asarning yana bir e'tiborli jihati shuki, Qalandarov yuqori lavozimda ishlashiga qaramasdan, Eshondan maslahat so'rashi va uning aytganlarini qilishi juda ham achinarli. Yozuvchi bu voqeani asarga kiritishining asosiy sababi, o'sha davrda yuqori lavozimda ishlayotgan ba'zi bir amaldorlarni tanqid qilish edi.

"Sinchalak" qissasida Saida sinchalak qushidek kichkina, nimjon bo'lsa ham osmonni ko'targulik quvvatli va g'ayratli qiz etib tasvirlangan. Uning bir o'zi jamiyat adolatsizligiga bardosh bera olganligi, Qalandarov va shu kabi bag'ritosh, o'zini o'ylaydigan insonlarni o'zgartirgani taqsimga sazovordir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qahhorning "Sinchalak" qissasi- Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987-yil.
2. Abdulla Qahhor. "Tanlangan asarlar". 3-jild. Toshkent: O'zbekiston, 2000
3. Karimov N. "O'zbek adabiyoti tarixi" Toshkent: O'qituvchi 2006
4. Yo'ldoshev Q. "Badiiy tahlil asoslari" Toshkent 2006